

**PILLANI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDAN AJRALIB
CHIQADIGAN G‘UMBAKDAN YUQORI DARAJADAGI
TABIIY MOY OLISH**

Mumtozbegim Ubaydullayeva

Buxoro muhandislik – texnologiya instituti

Annotatsiya: Pillani qayta ishlash korxonalarida ipak olish jarayonidan ajralib chiqadigan G‘umbakni qayta ishlash natijasida kosmetologiya, farmaseftika va qizshloq xo’jaligida katta ahamiyatga ega bo‘lgan yuqori sifatli moy olish.

Kalit so’zlar: Pilla, g’umbak, maydalash, quritish, ekstraksiyalash, g’umbak moyi, kosmetologik mahsulotlar, hayvonlar uchun ozuqa.

Yurtimiz pilla yetishtirish va ipak tolasi ishlab chiqarish bo‘yicha dunyoda Xitoy va Hindistondan keyin uchinchi o’rinda turadi. Hozirgi kunga kelib 76 dan ortiq klaster usulida pillani yetishtirish va qayta ishlash asnosida ipak mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar mavjud. Pillachilikda va pillakashlik korxonalarida ko‘p miqdorda chuvib bo‘lmaydigan pillalar, pillalarni chuvishda tolali chiqindilar va g‘umbak hosil bo‘ladi. Bu chiqindilardan foydalanish (utilizasiya qilish) xalq xo’jaligida katta ahamiyatga ega, chunki har bir kilogramm ishlab chiqilgan xom ipakga 1 kg ga yaqin turli chiqindilar to‘g‘ri keladi.

Maskur g‘oyani jamiyat va iqtisodiyotdagagi ma’lum bir muammo yechimiga qaratilganligi tog’risida ma’lumotlar: (Barcha ma’lumotlar Buxoro viloyati misolida olingan): Pillani qayta ishlash korxonasiagi pillani qayta ishlash jarayoni natijasida tola ajratib olingandan so’ng, g’umbak keraksiz mahsulot sifatida qolmoqda va arzon narxlarda (6 ming so’mdan) baliqchilik va tovuqchilik xo’jaligida ozuqa sifatida sotilmoqda.

Buxoroda uchta pillani qayta ishlash korxonalari mavjud: “Buxoro Brilliant silk” MChJ, “Romstar” QK, “Kumushkent ipagi” MChJ. Pilla yetishtirishning yillik quvvati 2 200 tonna. Ishlab chiqarish jarayonida ajralib chiqadigan g‘umbak miqdori 1056 tonna (Umumiyl massani 48 % g‘umbakdan iborat). G‘umbakni sotishdan olinadigan daromad miqdori (tovuqchilik va baliqchilik xo’jaliklari tomonidan 1 kg miqdori 6 ming so‘m baholanmoqda) 6,336 mlrd so‘m daromad.

G‘umbakdan moy olish texnologiyasi va g‘umbak moyidan foydalanish yo‘nalishlari: Pilladan ipak olish jarayonida g‘umbak ajralib chiqadi. G‘umbak maydalanish uskunasida maydalanadi, so‘ngra quritiladi. undan so’ng esa ekstraksiyalanadi. bunda G‘mbak moyi hosil bo‘ladi. G‘umbak moyidan qimmatbaho dorivor,farmokalogik vositalar, kosmetologik mahsulotlar, pilla sovuni olinadi. Bundan tashqari G‘umbak moyi jahon bozorida 200\$ miqdorda baholanadi.

G‘umbak moyyi olish jarayonida 75% miqdorda chiqindi hosil bo‘ladi. Bu chiqindi mahsulot shrot hisoblanib, hayvonlar uchun to‘yimli ozuqa hamda o‘simpliklar uchun mineral o‘g‘it sifatida ishlatiladi.

G‘umbakdan moy olish bir yilda 52,8 mln. AQSh. dollar foyda keltiradi.

Xulosa:

G‘umbakdan moy olish texnologiyasi avvalombor kosmetologiya sohasining rivojlanishiga katta turtki bo‘ladi. Bundan tashqari ushbu mahsulot aralashmasidan tayyorlangan tibbiyot surtmalari jarrohlikdan keyin hosil bo‘ladigan chandiqlarni yo‘qotish, soch to‘kilishini oldini olish xususiyatiga ega.